SIRDARYO VILOYATI GULISTON SHAHAR HOKIMI
Q A R O R I

2023 - yil 2 - avgust 205-9-130-Q/23 Guliston shahar hokimligi

Guliston shahrining ayrim ko’chalariga yo‘l belgisi o‘rnatish haqida

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi “Yo’l harakati qoidalarini tasdiqlash to’g’risida”gi 172-sonli qaroriga, Guliston shahar IIB JXX YHXBning 2023-yil 31-martdagi 30/1011-sonli xati ijrosini ta’minlash maqsadida “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6, 25-moddalariga asoslanib,

QAROR QILAMAN:

1. Guliston shahar IIB JXX YHXBning 2023-yil 31-martdagi 30/1011-sonli xati ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Guliston shahar ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi (B.Sayitnazarov), Guliston shahar IIB JXX YHXB (Sh.Ernazarov)larga:

-Guliston shahar O’zbekiston shox ko’chasining, Bolalar shifoxonasi ko’chasiga tutashgan qismiga;

-Guliston shahar O’zbekiston shox ko’chasining, Quruvchilar ko’chasi tutashmasi yo’l qismiga;

-Guliston shahar O’zbekiston shox ko’chasining, viloyat Favqulodda vaziyatlar boshqarmasiga qarab yo’nalishdagi 9-sonli ko’p qavatli turar joy qismiga;

-Guliston shahar O’zbekiston shox ko’chasining, viloyat Favqulodda vaziyatlar boshqarmasiga qarab yo’nalishdagi Quruvchilar ko’chasi tutash qismiga;

-Guliston shahar I.Karimov ko’chasining boshlanish qismiga;

-Guliston shahar I.Karimov ko’chasining, “Sirdaryo ekspertiza” MChJ binosi oldi qismiga;

-Guliston shahar I.Karimov ko’chasining, 63-ko’p qavatli turar joy ro’parasiga;

-Guliston shahar I.karimov ko’chasining, “Dilxush” kafesi chiqish joyi oldi qismiga;

-Guliston shahar I.Karimov ko’chasining, viloyat iqtisodiy sudi to’g’risiga;

-Guliston shahar I.Karimov ko’chasining, xotira maydoni ro’parasiga;

-Guliston shahar I.Karimov va Sayxun ko’chalari tutashgan qismi, viloyat Qishloq xo’jaligi boshqarmasi yon qismiga;

-Guliston shahar Sayxun ko’chasi, viloyat qishloq xo’jaligi boshqarmasi binosining tugashi

yo’llarining o’ng qismiga yo’l xarakati qoidalarining 3.27- “To’xtab turish taqiqlanadi” yo’l belgisi o‘rnatilishi vazifasi yuklatilsin.

3. Shahar hokimligi matbuot kotibi (Sh.Yunusov), mazkur qarorni “Guliston yangiliklari” gazetasida nashr etilishini va shahar hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilish vazifasi yuklatilsin.

4. Shahar hokimligi devonxonasi (E.Nuriddinov), mazkur qarorni, qog‘oz va elektron shakllarda bir kunlik muddatda, tegishli davlat organlari hamda tashkilotlarga yetkazilishini tashkillashtirsin.

5. Ushbu qaror rasmiy manbalarda e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish shahar hokimining o‘rinbosari (A.Kamilov) zimmasiga yuklansin.

Guliston shahar hokimi **T.T.Dadabayev**